



ISSUES OF GLOBALIZATION OF CENTRAL ASIAN IDEOLOGICAL PROCESSES

Humayiddin J. Yakubov

Doctoral's student

Uzbekistan State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ideological process, politics, society, globalization, Central Asia, method.

Received: 25.06.24

Accepted: 27.06.24

Published: 29.06.24

Abstract: Globalization of ideological processes is a concept that expresses that the ideological struggle in all regions of the Earth has gained a universal scale as a result of the expansion of the possibilities of ideological influence. The current stage of human history is characterized by the integration and intensification of international relations in all spheres of social, political, economic, spiritual and cultural life. This article is devoted to the overview of the issues of globalization of the ideological processes that have taken place in Central Asia.

MARKAZIY OSIYO MAFKURAVIY JARAYONLARINING GLOBALLASHUVI MASALALARI

Humoyiddin J. Yoqubov

tayanch doktorant

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Makfuraviy jarayon, siyosat, jamiyat, globallashuv, Markaziy Osiyo, metod.

Annotatsiya: Makfuraviy jarayonlarning globallashuvi g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalarida makfuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu maqola Markaziy Osiyoda ro'y bergan va berayotgan

**ВОПРОСЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ
ПРОЦЕССОВ***Хумайиддин Дж. Якубов**докторант**Узбекский государственный университет мировых языков**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** Идеологический процесс, политика, общество, глобализация, Центральная Азия, метод.**Аннотация:** Глобализация идеологических процессов — понятие, выражающее то, что идеологическая борьба во всех регионах Земли приобрела вселенский масштаб в результате расширения возможностей идеологического воздействия. Современный этап человеческой истории характеризуется интеграцией и активизацией международных связей во всех сферах общественной, политической, экономической, духовной и культурной жизни. Данная статья посвящена обзору вопросов глобализации идеологических процессов, происходивших в Центральной Азии.**KIRISH**

Mustaqillikka erishgan sobiq “sho‘rolar ittifoqi” respublikalarida qabul qilingan milliy konsepsiyalarning o‘xshash tomonlari shundan iboratki, ularning har birida asosiy e’tibor bir xil masalalarga qaratilgan. U ham bo‘lsa, u yoki bu xalq birinchidan, eng qadimgi davlatchilikka ega; ikkinchidan, uning kelib chiqishi va nomlanishi juda qadimiy bo‘lgan; uchinchidan, uning yashagan yerlari juda katta hududlarni o‘z ichiga olgan; to‘rtinchidan, uning mada- niyati juda yuqori bo‘lgan va qo‘shni xalqlarnikidan ustun turgan. Bunday yondashuv nafaqat Markaziy Osiyo respublikalari, balki sobiq “ittifoq” ning boshqa respublikalari, xususan, Rossiya Federatsiyasi va Ukrainadagi ba’zi olimlarga ham xos deb aytisak, adashmaymiz. U yerlarda nashr etilayotgan “ilmiy” asarlarni o‘qi- sangiz, ularda g‘ayriilmiy qarashlar, xususan, yevropotsentrizm va indoevropaizm g‘oyalari hukmronligini yaqqol ko‘rasiz. Bugungi kunda aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Mafkuraviy jarayonlar globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo‘nalish, tendensiya namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma’naviy

qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashtirishga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron – bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis – yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganidir. Mafkuraviy globallashtirish saviyasi past audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan “san'at asarlari”ning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. G'oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'lib qolmoqda. Ana shunday tadbirlar izchil amalga oshirilganda Mafkuraviy jarayonlarning globallashtirish g'oyaviy qarashlardagi muayyan farqlardan qat'i nazar, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik g'oyalariga sodiqlikning kamol topishiga sharoit yaratadi, umuminsoniy sivilizatsiya taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

ASOSIY QISM

Mafkura masalasi fransuz olimlari: Kabanis, Volney, Gar, Djerando, Lanselinlar tomonidan ham chuqur o'rganilgan bo'lib, biroq Napoleon Bonapart o'z davrida «istalgan har qanday mafkura agar u jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyojlar, qiziqish va qarashlarni ifoda etmas ekan, hech qanday mazmunga ega bo'lmaydi», deb hisoblaganligi uchun ham ularning qarashlari mavjud senzura ta'sirida qolib ketgan [1]. Slavoy Jijek [2] tadqiqotlarida «mafkura – bu arvoҳ kabiko'rinmas illyuziya bo'lib, chidab bo'lmas voqelikdan yashirinish uchun o'zimiz tomonimizdan o'ylab chiqariladi», deb xulosalangan.

MDH olimlari tomonidan mafkuraviy jarayonlarning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy jihatlari hamda muayyan sub'ektiv mafkuralarga doir tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.Bartold [2], K.Bendrikov, Ye.Bertels, L.Tugusheva, B.Litvinskiylar [4] o'z tadqiqot ishlarida Turkiston va boshqa sharq xalqlarining mafkuraviy qarashlarini falsafiy, tarixiy va ijtimoiy jihatdan tahlil etishgan.

XX asrning so'nggida jahon siyosiy xaritasida amalga oshgan ser-jarayonlar Markaziy Osiyoda ham keskin o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Mintaqamizda ro'y berayotgan g'oyaviy

jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar ana shu o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ekologiyaga oid muammolar mavjud mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu joydagi yalpi xavfsizlikka mintaqaviy, milliy, mahalliy mojarolar va diniy ekstremizm tahdid solishi ehtimoli mavjud. Bunday qarama-qarshiliklarda chetdagi ayrim yirik mamlakatlarning o'z manfaatlarini va ta'sir doiralarini saqlab qolish, kuchlar muvozanatini o'z foydalariga o'zgartirish uchun olib borayotgan harakatlari ham o'z o'rniga ega [5].

Tahdid tug'diruvchi sabablardan yana biri – mintaqa o'zining jo'g'rofiy- siyosiy holati jihatidan yalpi xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan hududda joylashganligi bilan bog'liq.

Yaqin yillarda butun dunyo, Yevropa va Osiyo kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan energiya, gaz va neftga boy konlar Markaziy Osiyoda joylashgan. Buning ustiga biz Sharq va G'arb mamlakatlarining manfaatleri bir-biriga mos kelmaydigan mintaqaning bir qismimiz. Bizning hududimizdan ko'pgina qudratli mamlakatlar ham o'z manfaatlarini izlaydi.

Yana bir tahdid manbai O'zbekistonning etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan ba'zi mamlakatlar qurshab turganligi bilan izohlanadi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh [6].

«Geosiyosiy maqsadlar — muayyan davlatning o'z mavqei va ta'sirini o'zga hudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosatni ifodalaydi. Bugungi kunda xalqaro maydonda turli shakllarda namoyon bo'layotgan bunday maqsadlar mafkuraviy siyosat bilan qo'shib bormoqda. Inson qalbi va ongi uchun kurash — bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biridir» [7].

Mintaqaviy nizolar terrorizm va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy sur'atda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda.

Ayrim qo'shni davlatlar yadro quroliga ega bo'lishga oshkora intilayotganligi bizni tashvishga solmoqda. O'zbekiston esa Markaziy Osiyo mintaqasini yadroviy qurollardan xoli hudud deb e'lon qilinishiga erishish uchun harakat qilmoqda.

Xullas, havfsizlikka solinayotgan tahdidlar siyosiy ekstremizm, jumladan, diniy ruhdagi ekstremizmni, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik, millatlararo, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik asosidagi ziddiyatlarni, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologiya muammolarini o'z ichiga oladi. Ular garchi turlicha namoyon bo'lsa-da, har birimizni hushyor va ogoh bo'lishga undaydi.

Ma'rifiy rivojlanish va dunyo xalqlari rivoji shuni taqozo etadiki, geosiyosat ham ma'lum maqsadlarni ko'zlar ekan, u faqat insoniyat orzu qilib kelgan tinchlik va barqarorlikka, mamlakatlar va xalqlar ravnaqiga, erkin va farovon hayot qurish g'oyasiga mos bo'lishi kerak. U Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida mujassam etib, hozirgi geosiyosiy maqsadlarning bosh mezoniga aylanib borishi lozim. U nosog'lom mafkura va g'oyalarni boshqa xalqlar ongiga, qalbiga singdirib, mafkuraviy jihatdan dunyoni bo'lib olishga emas, o'zaro manfaatli hamkorlikka, dunyoviy muammolarni o'zaro hamjihatlik bilan hal etishga xizmat qilishi kerak.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar tizimida Afg'onistonda davom etayotgan fuqarolar urushi ham alohida o'rin egallab turibdi. Yigirma yildan buyon davom etib kelayotgan harbiy mojarolar oqibatida umuminsoniy sivilizatsiyadan uzilib qolgan Afg'oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurol-yarog' va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi o'chog'i bo'lib qoldi. Bu esa turli zararli g'oyalarning terrorchilik, tahdid va tahlika yo'li bilan butun mintaqaga yoyilish xavfini tug'dirmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz bu xavfning oldini olish zarurligiga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratmoqda.

Tojikistonlik olimlar o'zlarining "oriylar" haqidagi mafkurasini yoqlab aytadilarki, "bizning oriylar harakati XX asr birinchi yarmida Germaniyadagi fashistlarning oriylar haqidagi ashaddiy millatchi oqimlariga aloqasi yo'q. Bizning maqsadimiz yangi avlodni milliy o'zligini anglash ruhida tarbiyalashdir". Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, nemis fashistlari ham dastlab o'z oldilariga xuddi shunday maqsadlarni qo'ygan edilar. Keyinchalik esa ular o'ta millatchilik va shovinistik g'oyalari bilan sug'orilgan irqchilik ta'limotiga aylandi. Bu g'oyalar oxir oqibatda qanday ofatlarga olib borgani hamma ma'lum. Tojikistonda 2006 yil "oriylar sivilizatsiyasi yili" deb e'lon qilinganda, "svastika" ramzining ma'nolari va talqinlari keng targ'ib etildi. Tojikistondagi tojik bo'lmagan xalqlar, shu jumladan o'zbeklar, va 2-Jahon urushi qatnashchilari, shu jumladan tojiklar, bundan o'zlarini juda noqulay sezdilar. Chunki bu ramz ularga "buyuk oriylar madaniyati" ni emas, nemis fashistlarini va 2-Jahon urushining qonli voqealarini eslatdi [12].

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin o'tgan yillar mobaynida Qirg'iziston olimlari orasida millatchilik ruhidagi qarashlar avj oldi. Qirg'izlar kam sonli kichik bir xalq bo'lsada, ularda ham shovinistik qarashlar mavjud. Masalan, O. Karataevning "Qirg'iz etnonimlar so'zligi" da turk xalqlari tarixida ma'lum bo'lgan deyarli barcha qabilalar va urug'lar qirg'iz etnonimlari qatoriga kiritilgan. Qirg'iz olimlariga ko'ra, Qo'qon xonligi aslida qirg'izlarning davlati bo'lgan, Farg'ona vodiysi ham qirg'izlarga qarashli bo'lgan, hozirgi o'zbeklarning tomirlarida ham qirg'izlarning qoni oqadi. Bu gaplarning hammasi quruq safsatadan boshqa narsa emas. Farg'ona vodiysining odamlari hech qachon o'zlarini qirg'iz deb hisoblamaganlar. Qirg'izlar bilan aralashgan oilalar

bor, lekin ular ko'p emas. Bu oilalarning ko'pchiligi 2-Jahon urushiga qadar, ya'ni "bosmachilik" harakati davrida (20-30-yillar) "qiz o'g'irlash", ya'ni zo'ravonlik yo'li bilan qurilgan qo'shma oilalarning avlodlaridir. Qirg'izlarda ko'chmanchi qabilalarga xos qizlarni o'g'irlash va undan keyin ularga egalik qilish odati bor edi, hozir ham bor. Chunki o'zbek hech qachon ixtiyoriy ravishda o'zining qizini ko'chmanchi qirg'izga yoki bosmachiga bermagan. Bu o'zbeklar uchun har doim or hisoblangan. Urushdan keyin bu qo'shma oilalarning farzandlari o'zbeklashib ketgan, hozir esa ularning avlodlari o'zlarini o'zbek deb biladi va o'zbek xalqining bir qismi hisoblanadi. O'zbek xalqiga chuqur hurmat bilan qaragan Chingiz Aytmatov umrining oxirgi yillarida Qirg'izistondan ketib, chet ellarda o'tkazgani bejiz emas, chunki u vatanida yuz berayotgan bunday tubanliklarni ko'rishni istamagan. U esa o'z vatanini juda ham sevar edi va asarlarida har doim uni ko'klarga ko'tarar edi. Uning muxlislari esa, shu jumladan men ham, bu asarlarni miriqib qayta-qayta o'qir edilar. Qirg'iz millatchilari qilgan bunday vahshiyliklarni hatto o'rta asrlarda Chingizxonning jangchilari ham qilmaganlar. Yana biz ularni "qardoshlar" deb ataymiz. Chindan ham o'zbek xalqining bag'ri juda keng va sabr-toqati cheksiz ekan-da.

Mustaqillik davrida Qozog'istonda bir qancha millatchilik ruhidagi g'oyalar ham ilgari surildi. Xususan, qozoq olimlari o'zbek xalqining etnogenezi bo'yicha sho'rolar davrida qabul qilingan konsepsiyani inkor etib, aslida "o'zbek" degan xalq bo'lmagan, ular qozoqlardan tarqalgan va ularning bir qismi bo'lgan, kabi fikrlarni tarqata boshladilar. Agar bu yerda Dasht-i Qipchoq o'zbeklari nazarda tutilgan bo'lsa, ularning qozoqlar bilan kelib chiqishi bir ekanligi to'g'ri. Ularning ikkalasi ham Yevrosiyo dashtlarida ko'chmanchilik hayot tarzi olib borib, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganlar, ularning umumiy nomi "o'zbek" bo'lgan. XVI asrda ruslar ularni sharqqa siqib chiqargandan keyin ular Markaziy Osiyoni egalladilar. Ularning bir qismi hozirgi Qozog'iston dashtlarida ko'chib yurgan qabilalarga kelib qo'shilgan. "Qozoq" etnonimi bilan ruslardagi "kazak" so'zining kelib chiqishi umumiy bo'lib, turkcha *qoch-*, ya'ni *qochmoq* fe'lidan yasalgan, bu fe'ldan *qochoq*, ya'ni "erkin odam" so'zi yasalgan. Bu so'z dastlab qonunga bo'ysunmaydigan va erkin hayot olib boradigan ko'chmanchilarga nisbatan ishlatilgan, ya'ni ular davlat va uning qonunchiligidan tashqarida hisoblanganlar, uning qonunlari va tartib-qoidalariga bo'ysunmaganlar. Qozoqlarning an'anaviy turmush tarzi ko'chmanchilik, mashg'uloti esa chorvachilik bo'lib, ular buni XX asrning boshiga qadar saqlaganlar. Qozoqlar Yevrosiyaning qadimgi ko'chmanchi qabilalari Saklar (Skiflar) madaniyatining vorislari va davomchilari hisoblanadi.

Markaziy Osiyo tarixan G'arb-Sharq, Shimol-Janub yo'nalishlari chorrahasidagi transport-kommunikatsiya bo'g'ini, g'oyat muhim resurslar oqimining markazi, sharqiy (musulmon) va g'arbiy (nasroniy) sivilizatsiyalar o'rtasidagi barcha jarayonlarda «filtr» va «bo'g'in» sifatida hozirgi zamon xalqaro tartibotning shakllanishida O'zbekiston va Rossiya manfaatlarini himoyasini

ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda manfaatdor hukmron doiralarning mablag'i evaziga beqarorlik keltirib chiqarishni ko'zlayotgan turli nodavlat tashkilotlarining faoliyatidan tortib, dunyoni yakka qutblilik asosida boshqarishga qaratilgan barcha geosiyosiy harakatlargacha nazorat qilinishiga alohida e'tibor qaratiladi [10].

Bunday xulosa chiqarishga yetarli asoslar bor. Ko'pgina tahlilchilarning ta'kidlashicha, so'nggi 20–30 yilda jahon bo'yicha energiya iste'moli ancha ko'paygan. AQSh energetika vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 1993 va 2015 yillar oralig'ida yoqilg'ining energiya zaxiralariga ehtiyoj kamida 50 foizga ortadi. Z.Bzejnskiy ta'kidlaganidek, "Osiyodagi iqtisodiy taraqqiyotga berilgan turtki yangi energiya zaxiralarini izlab topish va ulardan foydalanishga katta ta'sir ko'rsatilishini anglatadi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo va Kaspiy mintaqasi hududlarida tabiiy gaz va neft zaxiralari joylashgan". Energiya mahsulotlariga bo'lgan bunday katta ehtiyoj va ko'pgina davlatlarda ularning tanqisligi iqtisodiyotini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlash harakatidagi davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishini tasavvur etish qiyin emas [11].

Ikkinchidan, xalqaro munosabatlarda kuchlar mutanosibligida jiddiy o'zgarishlar yuz berganini ta'kidlash joiz. Endilikda bitta yoki bir necha yirik davlatlar guruhining ustunligini o'rnatib bo'lmaydi. Bunda dunyoning barcha nuqtalaridagi kuch markazlari, jumladan, YevroAzES davlatlari kuch-qudrati, salohiyati bilan hisoblashishga to'g'ri keladi. Davlatlararo munosabatlar amaliyoti shundan dalolat beradiki, kuchlar mutanosibligi tamoyilini tushunmaslik, uni tan olmaslik yoxud davlatning tashqi siyosatida e'tiborga olmaslik va og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina hududlarida o'ziga xos mintaqaviy kuchlar mutanosibligi tizimi qaror topgan. Bunday tizim Markaziy Osiyoda ham shakllangan. U ko'pgina davlatlarning, jumladan, AQSh va Rossiya ekspertlari va tahlilchilarining e'tiborini jalb etmoqda. Mintaqaviy kuchlar mutanosibligida ro'y berayotgan o'zgarishlar, avvalo, uning ishtirokchilari, ya'ni Markaziy Osiyo respublikalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning bu tizimga moslashishi, harakatlari, siyosat yuritishi nafaqat o'zining, balki butun mintaqada hududida xavfsizlikni belgilab beradi. Zero, bu yerdagi kuchlar mutanosibligi ko'plab yirik davlatlar ta'siri bilan belgilanadi. Bizningcha, unda jahon siyosatining asosiy yo'nalishlari jumladan, geosiyosiy vaziyat, milliy manfaatlar, global va mintaqaviy kuchlar mutanosibligining uzviy bog'liqligi o'z ifodasini topgan. Qolaversa, bu g'oya globallashtirish jarayoni keltirib chiqarayotgan muammolarni hal etish, turli tahdidlarni mintaqaviy jipslik va hamkorlikni kuchaytirish orqali bartaraf etish, demakki, mamlakatimizning xalqaro maydonda munosib o'rin egallash, har jihatdan taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rossiya: milliy-davlat mafkurasi tajribasi. Ed. I.A. Ilyina. – M.: 2014. – 15 b.
2. Zizek S. Mafkuraning yuksak ob'ekti. – M.: Badiiy jurnal, 2019. – 52-b.
3. Bartold V. Turkiston mangollar istilosi davrida. Hajmi - 1,2. -Sankt-Peterburg, M.: 2000.;
4. Bartold V. Turkiston madaniy hayoti tarixi. – Leningrad: Fanlar akademiyasining nashriyoti, 2017, – B.136-137.
5. Litvinskiy B.A. Markaziy Osiyoning mafkuraviy madaniyati // Moskva sharqshunosligi. Insholar, tadqiqot, ishlanmalar. – M.: 2017. – B. 57–59.
6. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. Maqolalar to'plami. Z.Davronov – Toshkent: O'zbekiston. 2013. – B. 56-57.
7. Mamashokirov S., Tog'aev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. – Toshkent: Ma'naviyat. 2017. – 10-b.
8. Quronov M. Mafkuraviy vaziyatlarni modellashtirish – g'oyaviy tarbiya vositasi. // J. Pedagogik ta'lim. 2010. – №3. – B. 22-23.
9. Bekmurodov M. Mafkuraviy zombi qilish mexanizmi. // G. Ma'rifat. – Toshkent: 2017 yil 2 iyun
10. Ergashev I., Xudoyberdiev X., Qahramonov A. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2012. – 31-b.
11. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Muharrir. 2019. – 48-b.
12. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. Toshkent: O'qituvchi, 1996.